

O'qish savodxonligi

IV qism

3



UO'K 808.545(075.3)

BBK 74.202.5ya72

T 61

Aydarova U. B., Azizova N. K.

O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lif mакtabalarining 3-sinfi uchun
darslik. IV qism. / U. B. Aydarova, N. K. Azizova. – Toshkent:
"Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lif mакtabining
oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o'rta ta'lif mакtabining
birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



**Savollarga
javob bering**



**Guruh bo'lib
ishlang**



**Diqqat bilan
o'qing**



Bu – qiziq!



Tinglang



**Topshiriqni
bajaring**



Uyga vazifa



Izohli lug'at

I bo'lim.

Bola shirin – odobi undan shirin





Taniqli bolalar shoiri Jo'ra Rahim 1933-yilda Namangan viloyatining Chortoq tumanida tug'ilgan. Shoirning "Qo'ng'iroq", "Momaqaldiroq", "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" deb nomlangan o'ndan ortiq kitoblari nashr etilgan.



Gaplarni o'qing. Ularda o'zaro qanday o'xshashlik borligini ayting.

Tabiat qo'yniga chiqqan bolalar atrof-muhitni asrab, unga ozor yetkazmadilar.

Nargiza mактабдан qaytgach, onasining yumushlariga yordam berishdan hech erinmaydi.

Anvar katta yo'lidan o'tayotib, o'zidan kichik sinfda o'qiydigan Malikning qo'lidan ushlab oldi.



Bir butun oy, o'n ikki yulduz

Jo'ra Rahim

Juda qadim zamonda
Chol-u kampir bor edi.
O'g'il va qiz ko'rmagan,
Dastyorga-chi, zor edi.

Ikkalasi ham ahil,
Aqlda edi dono.
Shuning uchun qo'shnilar,
Hurmatlardi doimo.
Kampir uyda o'tirar,
Qilib uyning yumushin.
Chol omoch-la yer haydab,
Tamomlar dala ishin.
Bug'doy o'rish ko'yida,
Chol qirga ketdi bir kun.
Kampir qoldi uyida,
Ovqat tayyorlash uchun.
Mana, ovqat ham tayyor,
Kim olib borar qirga?
Kampir yalinib ko'rdi,
Qo'shni o'g'li Tohirga:
– O'rgilay, o'g'lim, shuni
Eltib bergen bobongga.
“Bir butun oy, o'n ikki
Yulduz”, – degin bobongga.
– Ha, xo'p, – deya Tohirjon
Jo'nabdi qir tomonga.
Yo'l yurish va charchoqlik
Oxir tegibdi jonga.
So'ng madori quribdi,
Qorni ocha boshlabdi.
Tugunni yerga qo'yib,
Asta yecha boshlabdi.

Tugunda so'lqillama
 Bir qatlama bor ekan.
 Idishda chuchvaralar
 Terilgan qator ekan.
 Chuchvara, qatlamadan
 Keragicha yebdi u.
 "Qolganini eltarman
 Bobomlarga", – debdi u.
 Yetib borib boboga
 Topshirarkan tugunni,
 Debdii: – Buvim-chi, menga
 Tayinladilar shuni:
 – Bu tugunni bobongga
 Eltib bergen, – dedilar.
 – "Bir butun oy, o'n ikki
 Yulduz, degin", – dedilar.
 Tohirni alqab-yulqab
 Bobo ovqatni yebdi.
 Idishni bera turib,
 Tohirga shunday debdi:
 – Kech qolding, o'g'lim, yugur,
 Adashib qolma qirda.
 "Yarimta oy, oltita
 Yulduz", – deb qo'y kampirga.
 – Ha, xo'p, – deya Tohirjon
 O'qday uchib ketibdi.
 Kechga qolmay kampirning
 Huzuriga yetibdi.

– Siz yuborgan ovqatni
 Bobom maqtab yedilar.
 “Yarimta oy, oltita
 Yulduz”, – degin dedilar.

– Tugunni yechibsan-a? –
 Deb so‘rab qoldi kampir.

– Yechganim yo‘q, buvijon, –
 Tohir bermay turdi sir.

– Shoshma, shoshma, yulduzim,
 Qulqo ber, menga qara.
 Oltita yulduz o‘zi,
 Olti dona chuchvara.

Yarim oy degani –
 Yarimta qatlamacadir.
 Gapimga qulqo solib,
 Gap qaytarmay tura tur.

Bir butun qatlamacadan
 Yarmini o‘zing yebsan,
 Nega hech tan olmaysan,
 Sira yemadim deysan?
 O‘n ikki chuchvaradan
 Olti dona qolsa ham,
 Yeganim yo‘q, deya san
 Bo‘yin bermaysan, erkam.
 Yebsan, mayli, jon bolam,
 Yeganlaring osh bo‘lsin!
 Ammo to‘g’ri gapirgin,
 Buviginang o‘rgilsin.



1. Ertak nima haqida ekan?
2. Buvi nima uchun Tohirga ovqatni olib borishni iltimos qildi?
3. “*Bir butun oy, o'n ikki yulduz*” deganda nimani tushundingiz?
4. Tohir yolg'on gapirganini buvi qayerdan bildi?
5. “*Yeganim yo'q, deya san Bo'yin bermaysan, erkam*” misrasini qanday tushundingiz?
6. Ertakda insonning qanday fazilatlari madh etilgan?



omoch – ulov qo'shib yer haydaydigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog'och yoki temir asbob

so'lqillama – liqillab turgan

alqab-yulqab – birovga yaxshilik, baxt-saodat tilash



1. Ertakni rollarga bo'lib, ifodali o'qing.
2. Ertak qahramonlariga ta'rif bering.
3. Agar kampir bolaga faqatgina tugunni berib, bu gapni aytmaganda, vaziyat qanday bo'lar edi? Javobingizni izohlang.



Berilgan maqollarni o'qing.

Til bi
an tugilgan tu
ne
ch ilmas.

Chirov
v dan xunuk
nabi
dat yaxshi.

Rosx
so'zni
e
yolg'oz
so'zdan qayt.

Rasmni so'zlar bilan ifodalang. Shu so'zlar ishtirokida ertak mazmuniga mos kichik hikoya tuzing.



Ertakni rollarga bo'lib o'qing. Siz shunday holatga duch kelsangiz, nima qilgan bo'lar edingiz? Fikringizni yozing.

Mundarija

I bo'lim.

Bola shirin – odobi undan shirin	3
1-mavzu. Bir butun oy, o'n ikki yulduz. <i>Jo'ra Rahim</i>	4
2-mavzu. Izza. <i>Muhabbat Hamidova</i>	10
3-mavzu. Mehr urug'i	14
4-mavzu. Bilasizmi, bolalar? <i>Tolib Yo'ldosh</i>	18
5-mavzu. Kapalak. <i>Mahmud Murodov</i>	21
6-mavzu. Toshpo'lat. <i>Abdurahmon Akbar</i>	26
7-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash.....	29

II bo'lim.

Kitob – aql qayrog'i.....	32
8-mavzu. Kitobni qanday o'qish kerak	33
9-mavzu. Kitob – kuch. <i>Nabijon Ermat</i>	37
10-mavzu. Aql va Davlat	41
11-mavzu. Kitobning qimmati. <i>Xudoybergan Shomurodov</i>	45
12-mavzu. Kitobni do'st bilganlar. <i>Zamira Ro'ziyeva</i>	49
13-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash	52

III bo'lim.

Yurtim bo'ylab sayohat	54
14-mavzu. Yurtim madhi. <i>Dilshod Rajab</i>	55
15-mavzu. Yurtim bo'ylab sayohat.....	58
16-mavzu. Orzu yo'li. <i>Ravshan Isoqov</i>	64
17-mavzu. Orol	68
18-mavzu. Qashqadaryo. <i>Normurod Narzullayev</i>	71
19-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash	74

veb-saytimiz: Zokirjon.com
***Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun
kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.***

Zokirjon Admin bilan

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomeraga
murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram
orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445
izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.
Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi***

***3-sinf o‘qish savodxonligi IV qism kitobini
to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.***

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**